

**TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA ILMIY TADQIQOT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.16/30.12.2019.K/T.87.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO MUHANDISLIK – TEXNOLOGIYA INSTITUTI

KARIMOVA ZILOLA MAHMUDOVNA

**PIROLIZ JARAYONI IKKILAMCHI XOM ASHYOSI ASOSIDA ION
ALMASHINISH SMOLALARI OLIISH TEXNOLOGIYASI VA
QO'LLANILISHI**

02.00.14 – Organik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025 yil

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Contents dissertation abstract of doctor philosophy (PhD)

Karimova Zilola Mahmudovna

Piroliz jarayoni ikkilamchi xom ashyosi asosida ion almashinish
smolalari olish texnologiyasi va qo‘llanilishi3

Каримова Зилола Махмудовна

Технология получение ионообменных смол на основе
вторичного сырья процесса пиролиза.....21

Karimova Zilola Makhmudovna

Technology for producing ion exchange resins based on secondary
raw materials from the pyrolysis process41

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works 44

**TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA ILMIY TADQIQOT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.16/30.12.2019.K/T.87.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO MUHANDISLIK – TEXNOLOGIYA INSTITUTI

KARIMOVA ZILOLA MAHMUDOVNA

**PIROLIZ JARAYONI IKKILAMCHI XOM ASHYOSI ASOSIDA ION
ALMASHINISH SMOLALARI OLIH TEXNOLOGIYASI VA
QO'LLANILISHI**

02.00.14 – Organik moddalarva ular asosidagi materiallar texnologiyasi

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent–2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/T2776 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Buxoro muhandislik-texnologiya institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasiga (www.tktiti.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Nurmanov Suvankul Erxanovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Karimov Mas'ud Ubaydulla o'g'li
texnika fanlari doktori, katta ilmiy xodim.

Mahkamov Muzaffar Abdugapparovich
kimyo fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Umumiy va noorganik kimyo instituti


Dissertatsiya himoyasi Toshkent kimyo-texnologiya ilmiy tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.16/30.12.2019.K/T.87.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil « 3 » iyun soat 9⁰⁰ daqiqa majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 111116, Toshkent tumani, Ibrat MFY, Sho'robozor. Tel. (+99895) 144-67-83, E-mail: ooo_tniixt@mail.ru, TKTITI@exat.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent kimyo-texnologiya ilmiy tadqiqot institutining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (№ 2025/14 raqami bilan ro'yxatga olingan Manzil: 111116, Toshkent tumani, Ibrat MFY, Sho'robozor. Tel: (+99895) 144-67-83, E-mail: ooo_tniixt@mail.ru, TKTITI@exat.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «_18_» iyun kuni tarqatildi.

(2025 yil «_18_» iyungi 2025/14 raqamli reestr bayonnomasi).




Djalilov A.T.

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
k.f.d., prof., akademik



Qiyomov Sh.N.

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, t.f.d. (DSc), k.i.x.



Beknazarov H.S.

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi, ilmiy seminar raisi, t.f.d., prof.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda so‘nggi yillarda quyidagilar ishlab chiqarishning eng asosiy va iqtisodiy samarali usuli sifatida uglevodorodlar pirolizi jarayoni e‘tirof etiladi. Ushbu jarayonda asosiy mahsulot (etilen, propilen, buten-1, vodorod) bilan bir qatorda ikkilamchi mahsulotlar (piroliz distillyati, piroliz moyi va tar-mahsulot) ham hosil bo‘ladi. Shunga ko‘ra ikkilamchi mahsulotlardan olingan materiallardan kimyo sanoati, neft va gazni qayta ishlash korxonalarini, energetika, farmasevtika, qurilish, qishloq xo‘jaligi va boshqa sohalarda ishlatiladigan reagentlar ishlab chiqarish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda sanoat oqava suvlarining miqdorini ortishi, ichimlik suv miqdorining kamayib borishi kabi tabiiy va sun‘iy o‘zgarishlar tufayli yangi turdagi kationitlar va ularning xom ashyo bazalarini izlab topish, ular asosida sifati va samaradorligi yuqori bo‘lgan ionitlar sintezi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada g‘ovaksimon, adsorbsion xossalari, dinamik va statik sigimi yuqori bo‘lgan ionalmashinish xossasiga ega bo‘lgan materiallar olish jarayonini tadqiq qilish, texnologik parametrlarini aniqlash, texnologiyasini yaratishra alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda kimyo sanoatida mahalliy xom ashyolardan samarali foydalangan holda import mahsulotlarni bosqichma-bosqich qisqartirish orqali eksportbop mahsulotlar ishlab chiqish, qayta ishlash natijasida hosil bo‘ladigan ikkilamchi mahsulotlardan to‘g‘ri foydalanish borasida bir qancha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida «Mavjud imkoniyatlarni to‘liq ishga solgan holda mahalliy sanoat tarmoqlari salohiyatini yanada rivojlantirish, tashqi bozor va halqaro talablarga javob beradigan standartlarni joriy etish»¹ bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada, mahalliy sanoat ikkilamchi xom ashyolari tarkibini aniqlash, zaruriy birikmalarni ajratish va ular asosida sanoat suvlarini tozalash tizimlarini yaratish, fizik-kimyoviy, ekspluatasion xossalari aniqlash va texnologiyasini ishlab chiqishga qaratilgan tadqiqotlarga alohida ahamiyat e‘tibor qaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi” to‘g‘risidagi farmoni, 2018 yil 25 oktabrdagi PQ-3983 sonli “O‘zbekiston Respublikasida kimyo sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari”, 2018 yil 17 yanvardagi PQ-3979 sonli “Mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlarining talab yuqori bo‘lgan mahsulot va xom ashyo turlari bilan barqaror ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” va 2021 yil 13 fevraldagi PQ-4992 sonli “Kimyo sanoati korxonalarini yanada isloh qilish va moliyaviy sog‘lomlashtirish, yuqori qo‘shilgan qiymatli kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-61-son «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustivor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur ilmiy tadqiqot ishi Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII. “Kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiyalar” ustivor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Neft va gazni qayta ishlash, jumladan, piroliz jarayonida hosil bo‘ladigan ikkilamchi mahsulotlarni chuqur qayta ishlash bo‘yicha chet el olimlaridan F.M.Sadigov, A.B.Rakov, S.N.Lakeyev, A.D.Berens, M.A.Lebedevalarning ishlarida piroliz jarayoni ikkilamchi mahsulotlari tarkibini o‘rganish, ular asosida turli mahsulotlar ishlab chiqish bo‘yicha izlanishlar olib borilgan B.U.Imashev va E.V.Geibovalar ko‘p yadroli arenlar asosida superplastifikator ishlab chiqarish texnologiyasini yaratgan. A.B.Rakov, G.N.Gadjiev, Z.Yu.Magerramova, N.I.Gaydarli, I.A.Guseynovlarning ishlarida og‘ir piroliz moyi (tar-mahsulot) tarkibini asosiy qismini tashkil qiladigan ko‘p yadroli aromatik birikmalarni ajratib olish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan.

Mamlakatimizda esa piroliz jarayoni ikkilamchi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash, bir va ko‘p yadroli aromatik uglevodorodlarni ajratib olish bo‘yicha A.T.Jalilov, S.E.Nurmanov, M.Karimov kabi olimlar ilmiy izlanishlar olib borishmoqda. Respublikamiz piroliz jarayoni ikkilamchi mahsuloti hisoblangan “tar-mahsulot” tarkibidagi ko‘p yadroli aromatik uglevodorodlar asosida import o‘rnini bosuvchi, eksportbop kationit ishlab chiqarish texnologiyasini yaratish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Dissertatsiya ishi mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi Buxoro muhandislik – texnologiya instituti hamda O‘zbekiston Milliy universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining AM-F3-2019081449 “Sanoat ikkilamchi xom ashyosi asosida yangi turdagi kationit olish texnologiyasini ishlab chiqish” (2021 – 2023 yy.) mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Ustyurt gaz-kimyoy majmuasi ikkilamchi mahsuloti hisoblangan “tar-mahsulot” tarkibidagi antratsen gomologlari asosida kuchsiz kislotali kationit sintez qilish, texnologiyasini ishlab chiqish va qo‘llashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Ustyurt gaz kimyoy majmuasi ikkilamchi mahsuloti hisoblangan “tar-mahsulot”ning xossalarini va tarkibini aniqlash, fraksiyalash orqali tarkibiy qismlarga ajratish;

mahsulot tarkibidan antratsen gomologlarini ajratib olish va ularni oksidlash jarayonini amalga oshirish, mos ravishdagi antratsen karbon kislotalarni sintez qilish;

antratsen karbon kislotalarni formaldegid bilan polikondensatsiya jarayonini amalga oshirish orqali polimetilenantratsenkarbon kislotani sintez qilish, uni tuzulishini aniqlash, jarayonga turli omillar ta‘sirini aniqlash va maqbul sharoitini topish;

sintez qilingan polimetilenantratsenkarbon kislotani kuchsiz kislotali kationit sifatida fizik-kimyoviy, ekspluatatsion xossalarini aniqlash va sinovdan o‘tkazish;

sanoat ikkilamchi mahsuloti tarkibidan antratsen gomologlarini ajratib olish va u asosida kuchsiz kislotali polimetilenantratsenkarbon kislotani olish va uni kationit

sifatida qo'llash texnologiyasini ishlab chiqish, jarayonni iqtisodiy samaradorligini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida tar-mahsulot, ko'p yadroli arenlar, antrasen gomologlari, konsentrlangan nitrat va sulfat kislotalar, formalin, kaustik soda, indikatorlar olingan.

Tadqiqotning predmeti fenantren, antrasen va ularning gomologlari, tar-mahsulot, α -antrasen karbon kislota, β -antrasen karbon kislota, di- va poliantrasen karbon kislotalar, chiziqli polimetilenantrasen karbon kislota, fazoviy tuzilishli polimetilenantrasen karbon kislotalar olish texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiya ishida fraksiyalash, qayta kristallash, oksidlash, polikondensatsiya, ekstraksiya, rektifikatsiya, distillyatsiya usullaridan, analizning fizik-kimyoviy (IQ-spektroskopiya, xromatografiya, mass-spektroskopiya, termogravmetriya, SEM, differensial termik analiz, titrimetrik analiz, gravimetriya) va kolloid-kimyoviy (konduktometrik, stalagmometrik) tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uglevodorodlar pirolizi ikkilamchi mahsuloti hisoblangan tar-mahsulot tarkibidan antrasen gomologlarini ajratib olish va qayta kristallash orqali tozalash usuli ishlab chiqilgan;

uglevodorodlarni pirolizlab olingan antrasen gomologlarini oksidlash orqali antrasen karbon kislotalar sintezi ilmiy jihatdan asoslangan, jarayonga oksidlovchilar tabiati ta'siri aniqlangan;

antrasen gomologlarini HNO_3 va H_2SO_4 ishtirokida oksidlab antrasen karbon kislotalarni olish jarayoni mexanizmi tavsifiya etilgan va texnologik sxemasi ishlab chiqilgan;

antrasen karbon kislotalarni formaldegid bilan polikondensasiya reaksiyasi natijasida chiziqli va fazoviy tuzilishli polimetilenantrasen karbon kislota sintez qilingan va jarayonning optimal sharoitlari aniqlangan;

tar-mahsulot tarkibidagi antrasen gomologlarini oksidlash orqali sintez qilingan chiziqli tuzilishli polimetilenantrasenkarbon kislota sanoat oqava suvlari namunalarini metall kationlaridan tozalash usuli asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Ustyurt gaz kimyo majmuasi ikkilamchi mahsuloti hisoblangan tar-mahsulot tarkibidan ko'p yadroli arenlar- antrasen gomologlari ajratib olish, tozalash usuli ishlab chiqilgan va texnologik parametrlari aniqlangan;

ajratib olingan antrasen gomologlarini nitrat va sulfat kislota aralashmasida oksidlash orqali olingan antrasen karbon kislotalarni formaldegid bilan polikondensasiyasi natijasida polimetilenantrasenkarbon kislota sintez qilish usuli ishlab chiqilgan;

sintez qilingan tarmoqlangan tuzilishli polimetilenantrasen karbon kislota kuchsiz kislotali kationit sifatida ekspluatatsion xossalari aniqlangan va sanoat oqava suvlarni tozalashda qo'llash imkoniyati aniqlangan;

polimetilenantrasen karbon kislota ishlab chiqarish texnologiyasi yaratilgan, jarayonning material balansi, iqtisodiy samaradorligi hisoblangan va texnologik reglamentlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi olingan birikmalarning tuzilishi zamonaviy fizik-kimyoviy tahlilat jumladan: IQ-spektroskopiya, xromatografiya, mass- spektroskopiya, skanerlovchi elektron mikroskopiya va termal tahlil usullari yordamida aniqlanganligi, tajriba natijalarining matematik qayta ishlab, kvant kimyoviy hisoblashlar amalga oshirilganligi, fizik-kimyoviy ko'rsatkichlarini aniqlab sanoat-tajriba sinovlaridan o'tkazilganligi hamda amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Ustyurt gaz-kimyosida ugevodorodlar pirolizi jarayoni mahsuloti tarkibidan ajratib olingan antrasen gomologlari asosida chiziqli va fazoviy tuzilishga ega polimetilenantrasen karbon kislota sintez qilinganligi va texnologiyasi ishlab chiqilganligi, jarayonlar borishiga turli omillar ta'siri aniqlanganligi va olingan mahsulotlarni sanoat oqava suvlarini tozalashdagi faolligi aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Ustyurt gaz kimyosida ugevodorodlar pirolizi jarayoni ikkilamchi mahsuloti tarkibidan antrasen gomologlarini ajratib olishga u asosida kuchsiz kislotali kationit ishlab chiqarishga va sanoat oqava suvlari namunalarini turli xil metall kationlardan tozalash uchun qo'llashga va jarayonlarning iqtisodiy samarador texnologiyalarini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ustyurt gaz kimyosida ikkilamchi mahsuloti hisoblangan tar-mahsulot tarkibidan ko'p yadroli arenlarni ajratib olish va ular asosida kuchsiz kislotali kationit sintez qilish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

tar-maxsulot tarkibidan ajratib olingan antrasen gomologlari asosida fazoviy tuzulishga ega polimetilenantrasen karbon kislota olish usuli "Uz-Kor Gaz Chemical" MChJ QK da amaliyotga joriy etilgan ("Uz-Kor Gaz Chemical" MChJ QKning 2024-yil 12-sentyabrdagi 01-5/12-357-son ma'lumotnomasi). Natijada, mahalliy xom ashyo asosida import o'rnini bosuvchi kationit olish imkonini bergan; sintez qilingan polimetilenantrasen karbon kislota sanoat oqava suvlarini tozalashda kationit sifatida "Uz-Kor Gaz Chemical" MChJda qo'llanilgan ("Uz-Kor Gaz Chemical" MChJ Qkning 2024-yil 12-sentyabrdagi 01-5/12-357-son ma'lumotnomasi). Natijada korxonada foydalaniladigan texnik suvning pH ko'satkichini 9.2 dan 7.5 gacha, umumiy qattiqligini 9.3 dan 0,27 mg-ekv/l gacha, Ca⁺² ionlari miqdorini 5.0 dan 0,27 mg/l gacha kamaytirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta, jumladan 3 ta xalqaro, 4 ta respublika ilmiy amaliy anjumanlarida ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish, jumladan 6 ta maqola O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi qoshidagi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiya ishlari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola respublika, 2 ta maqola xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 108 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyligi, maqsad va vazifalar, shuningdek, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirish yo‘nalishiga muvofiqligi keltirilgan bo‘lib, tadqiqotning ilmiy yangiliklari va amaliy natijalari yoritib berilgan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, chop etilgan ishlar va dissertatsiyaning hajmi, tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Piroliz jarayoni mahsulotlari, ularni qayta ishlab olinadigan materiallar**» deb nomlangan **birinchi bobida** uglevodorodlar pirolizi jarayonining borish sharoitlari, dastlabki xom ashyo tarkibi, jarayon harorati, ta’sirlashish vaqti, bosim ta’siri, piroliz mahsulotlarining tarkibi va piroliz jarayoni samaradorligi keltirilgan. Piroliz jarayonida sodir bo‘ladigan kimyoviy jarayonlarning turlari (birlamchi va ikkilamchi reaksiyalar) reaksiya mexanizmlari (radikal zanjir mexanizmi), piroliz jarayonida hosil bo‘ladigan ikkilamchi mahsulotlar, pirokondensat tarkibidagi arenlar miqdori, piroliz jarayoni reaktorlari, pirolizda hosil bo‘ladigan mahsulotlar turlari, qayta ishlash usullari, Ustyurt gaz kimyo majmuasiga qarashli “Uz-Kor Gas Chemical” QK MChJ ikkilamchi mahsulotlari tarkibi yoritilgan.


Piroliz jarayoni ikkilamchi mahsulotlari piroliz moyi va tar-mahsulot tarkibidan naftalin, ko‘p yadroli arenlar ajratib olish, hamda shu asosida turli polikondensatlanish mahsulotlari olish jarayonlari muhokama qilingan. Naftalin asosida turli superplastifikatorlar olish bo‘yicha dunyo tajribasidan misollar keltirilgan. Bugungi kunda keng qo‘llaniladigan superplastifikator ishlab chiqaruvchilar keltirilgan – C-3, SMF, Dofen DF, Kratasol, Superplast, Polyplast, Ferrokrit, Vilakom, Rheobuild 2000 (Rossiya); Agiplast (Rhona, Fransiya); Cormix (Rhodia, Angliya); Chroso fluid (Chroso Industries, AQSh) va kelajakdagi istiqbollari tahlil qilingan.

Adabiyotlar ma‘lumotlari tahlil qilinganda antrasen gomologlari asosida ion almashinish smolalari olish jarayonlari yetarlicha chuqur tahlil qilinmaganligi ma‘lum bo‘ldi.

Dissertatsiyaning «**Ko‘p yadroli aromatik birikmalar, ular asosidagi sintez usullari va xossalarini o‘rganish**» deb nomlangan **ikkinchi bobida** xom-ashyo tarkibi tahlili va ajratish usullari bayon qilingan.


Tar-mahsulot tarkibidan ikkinchi fraksiya sifatida ajratib olinib qayta kristallangan va presslash yo‘li bilan tozalab olingan kristallar tarkibida asosan alkil-antrasenlar borligi aniqlangan. Alkil-antrasenlar aralashmasi 56%li nitrat kislota yordamida sulfat kislota katalizatorligida oksidlanib antrasen karbon kislota sintez qilinadi. Antrasen karbon kislota sintezi uchun uch og‘izli kolbaga

birinchi teskari sovutgich ulandi, magnitli aralastirgich bilan doimiy aralastirib turildi, ikkinchi tomizgich voronka, uchinchi og‘izdan kolbaning tubigacha boradigan termometr ulangan laboratoriya qurilmasi yig‘ildi va sintez amalga oshirildi. Oksidlash jarayonida boradigan asosiy reaksiya tenglamasini quyidagicha tasvirlash mumkin. Aralashmada massa hisobida 1-metil, 2-metil va 9-metilantrasenlar miqdori eng yuqori bo‘lganligi uchun reaksiya tenglamalarini shu moddalar misolida tasvirlaymiz.




1-metilantrasen

1-antrasen karbon kislota



2-metilantrasen

2-antrasen karbon kislota



9-metilantrasen

9-antrasen karbon kislota

Maydalab olingan 100 gr arenlar aralashmasi kukuni 120°C da qizdirilib, ustiga aralastirib turgan holda konsentrlangan sulfat kislota ($d = 1,84 \text{ g/ml}$, $C\% = 98\%$) va 56% nitrat kislota aralashmasi tomchilatib berildi. Asta-sekinlik bilan kolbadan qo‘ng‘ir rangli gaz ajralib chiqa boshladi. Jarayon 2 soat, qo‘ng‘ir rangli gaz ajralishi tugaguncha olib borildi. Olingan massa sovutilib, avval distillangan suv bilan neytral muhitgacha yuvildi. Keyin aralastirib turgan holda asosli muhit berguncha Na_2CO_3 ning 5 foizli 37 gr eritmasi solindi. Olingan eritmada ortiqcha natriy karbonat distillangan suv bilan yuvib tashlandi. 60-70°C haroratda vakuum bug‘latgichda namlikdan quritildi. Shundan keyin 3 soat davomida ochiq havoda quritildi. Natijada 94,64 gramm antrasen karbon kislotalar aralashmasining natriyli tuzlari olindi, reaksiya unumi 91%.

Olingan mahsulotlarning xossalarini o‘rganish

Olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida sintez qilingan mahsulotlarning tarkibi, tuzilishi, xossalarini o‘rganish, tahlil qilishda xromato-mass spektrometriya, IQ-spektroskopiya, SEM – skanerlovchi elektron mikroskop analizi, element analiz, TG – termogravmetrik analizlardan, namuna mustahkamligini aniqlashda gidravlik pressdan foydalanilgan.

Tar-mahsulot tarkibidan ajratib olingan fraksiyalar xromato-mass spektrlari standart HP-5MS markali kolonkada gaz-suyuq fazada, 0-320°C haroratda “Agilent MSD 5975C-GC7890A” xromatomass spektrometrida tahlil qilindi.

Olingan namunalar MIRacle 10 FTIR bo‘lgan IQ Affinity-1 uchun 4700 - 400 cm^{-1} to‘lqin uzunligida ishlaydigan ZnSe prizma plastinkasiga ega “Shimadzu” firmasi ishlab chiqargan va optik spiral o‘lchami $<0,25 \text{ cm}^{-1}$, IQ spektr diapozona

7000-400 cm^{-1} bo'lgan "Agilent Technologies Cary 640 Series FTIR" IQ – spektrometrlaridan foydalanildi.

Sintez qilingan kationitning va olingan boshqa namunalarning element tarkibi va mikroskopik rasmlari skanerlovchi elektron mikroskop (SEM) EVO MA-10 skanerlash elektron mikroskopida (Carl Zeiss, GFR) energiya dispersli rentgen (EDA) mikrotahlili (Oxford Instruments, Angliya) uchun mikroanalitik tizim bilan bog'langan qurilmada tahlil qilindi.

Kuchsiz kislotali kationitning termogravmetrik (TGA) va differensial termik analizlari (DTA) TG 209 F1 qurilmasida amalga oshirildi.

Sintez jarayonida olingan oligomerlarning beton qorishmalarida 7 va 28 sutkalik mustahkamligi GOST 10180-2012 bo'yicha №MIG.1000.06 RU gidravlik press yordamida aniqlandi.

Gaz kondensati pirolizi jarayoni suyuq mahsulotlaridan biri "tar-mahsulot" tarkibidan ajratib olingan fraksiyalar tarkibi xromato-mass spektrlari tahlil qilinganda ularning tarkibida metilantrasenlar borligi aniqlandi. Natijada tar-mahsulotni fraksiyalash orqali metilantrasenlar ajratib olindi va tozalandi.

Metilantrasenni oksidlash natijasida – antrasen karbon kislotalar hosil bo'lishi aniqlandi.

1, 2 va 9-antrasen karbon kislotalarni formaldegid bilan turli nisbatlarda polikondensatlanishi natijasida chiziqli tuzilishga ega polimetilenantrasen karbon kislotalarning natriyli tuzlari sintez qilindi.

Sintez qilingan moddalarning tarkibi, tuzilishi, fizik-kimyoviy xossalarini o'rganish va tahlil qilishda GXMS, IQ-spektrometriya, SEM-EDA, element analizi, TGA-DTA, Gidravlik press qurilmalaridan va usullaridan foydalanildi.

Dissertatsiyaning «**Tar-mahsulot tarkibini o'rganish va kationit sintezi, qo'llanilishi**» deb nomlangan **uchinchi bobida** "Uz-Kor Gas Chemical" MChJ QKsi piroliz jarayoni ikkilamchi mahsuloti tar-mahsulot xossalari: qovushqoqligi, kokslanishi, namligi, kullik darajasi, qaynash haroratining boshlanishi va element tarkibi aniqlandi. Tar-mahsulot qora rangli hidsiz, shishasimon strukturali mo'rt qattiq modda bo'lib, uning fizikaviy xossalari 1 – jadvalda keltirilgan.

1 – jadval

Tar-mahsulotning fizik doimiylilklari


Kattaliklar	Qiymati
qovushqoqligi, 60°C, (mm^2/s)	57
kokslanishi, %	54
namligi, %	0,2
kullik darajasi, %	2,7
qaynash haroratining boshlanishi, °C	270
element tarkibi, % C	93,10
H	6,20
boshqa moddalar	0,7

Tar-mahsulotdan ajratib olingan fraksiya tarkibidan antrasen gomologlarini nitrat kislota bilan oksidlab antrasen karbon kislotalar aralashmasi olindi. Ushbu karbon kislotalar asosida chiziqli va fazoviy tuzulishli polimetilenantrasen karbon

kislotalar sintezi jarayoni optimal sharoitlari aniqlandi. Olingan moddalarning tuzilishi, tarkibi va xossalari IQ spektroskopik, xromato-mass spektrometrik, SEM va TGA-DTA usullardan foydalanib aniqlandi.

Antrasen gomologlari oksidlanishi natijasida 86% unum bilan antrasen karbon kislotalar aralashmasi olindi. Ushbu karbon kislotalar va 37% formalin asosida polimetilantrasen karbon kislota va uning natriyli tuzi (PMAK-1) olish sharoitlari aniqlandi.

Kuchsiz kislotali kationit olish sharoitlari aniqlandi va chiziqli strukturaga ega PMAK hamda fazoviy tuzilishga ega PMAK-1 birikmalari sintez qilindi. Olingan kationitlar oqava suvlar tarkibidagi og‘ir metallarni tozalashda qo‘llanildi.




1 – rasm. Tar-mahsulot fraksiyasi GXMS xromatogrammasi

2 – jadval

Tar-mahsulot fraksiyasi kimyoviy tarkibi

Modda nomi	Massa ulushi
Antrasen	
1-metilantrasen	
2-metilantrasen	
9-metilantrasen	
Fenantren	6
1-etilantrasen	
1,8-dimetilantrasen	2,94
boshqa moddalar	1,20




2 – rasm. Antrasen gomologlari IQ spektri

3 – jadval

Antrasen gomologlari IQ spektri tahlili

Tebranish chastotasi, sm^{-1}	Funksional guruh	Tebranish shakli
3048,45	aromatik yadrodagi - C-H	valent tebranish
1710,92	aromatik yadrodagi - CH_3	valent tebranish
1493,42	aromatik yadrodagi C=C	valent tebranish
733,83	aromatik yadro	valent tebranish
3616,19	aromatik yadrodagi - C-H	deformatsion tebranish

Alkilantrasenlarni oksidlash reaksiyasi termodinamik jihatdan boshqariladigan reaksiya bo‘lib, jarayonning reaksiya tenglamasini quyidagicha tasvirlash mumkin.



1-metilantrasen

antrasen 1 – karbon kislota


Yuqorida ko‘rsatilgan sxema bo‘yicha barcha izomerlar aralashmasi oksidlanib aralash karbon kislotalar hosil bo‘ladi. Jarayon 120°Cda 2 soat davomida olib boriladi.

Antrasen karbon kislota sintez jarayoni sharoitlari

Modda nomi	Metilantrasen va nitrat kislota mol nisbati	Reaksiya harorati, °C	Reaksiya davomiyligi, soat	Mahsulot unumi, %
Antrasen karbon kislota	1:1,1	100	2	68
			3	76
			4	84
	1:1,1	110	2	69
			3	79
			4	79
	1:1,1	120	2	83
			3	98
			4	99
	1:1,1	130	2	79
			3	98
			4	98

Antrasen karbon kislota sintezining muqobil sharoiti sifatida metilantrasen va 56% nitrat kislota 1:1,1 mol nisbatda, 120°C haroratda, 3 soat davomida unum 98% bo'lgan sharoit qabul qilindi. Jarayon to'rt soat davom ettirilganda unum 1%ga oshganligi kuzatildi ammo energiya va vaqt sarfi ko'payganligi evaziga iqtisodiy samaradorlik pasayishini inobatga olib reaksiya vaqti 3 soat bo'lgan jarayon optimal qilib olindi.

Olingan antrasen karbon kislotaning IQ spektri olindi va tahlil qilindi natijalar 3 – rasm va 5 – jadvalda keltirilgan.



3 – rasm. Antrasen karbon kislota IQ-spektrogrammasi


Antrasen karbon kislota IQ-spektri tahlili

Chastotasi, sm^{-1}	Funksional guruh	Tebranish turi
3061,54	aromatik yadrodagi -C-H	valent tebranish
1596,59-1495,81	aromatik yadrodagi C=C	valent tebranish
742,6	aromatik yadro	valent tebranish
1106,18	-COOH	valent tebranish
1190,57	C=O	valent tebranish


Chiziqli strukturali polimetilenantrasen karbon kislotasi oligomerlari natriyli tuzlari qisman suvda eruvchan bo'lib, yuqori plastifikatorlik xususiyatiga ega sirt faol moddalar qatoriga kiradi. Shunday oligomerlarni sintez jarayoni quyidagi ketma-ketlikda amalga oshirildi.

I. Tar-mahsulot tarkibidan ajratib olingan antrasen gomologlari fraksiyasi (345-360°C) asosan metilantrasenlar aralashmasidan iborat. Olingan metilantrasenlar aralashmasi nitrat kislotasi ishtirokida oksidlandi.

II. Hosil bo'lgan antrasen karbon kislotalar aralashmasi formalin ishtirokida (37%) konsentrlangan sulfat kislotasi katalizatorligida polikondensatsiya jarayonida oligomerlandi. Jarayon sxemasini quyidagicha tasvirlash mumkin:



III. Olingan oligomer natriy gidroksidning 20% suvdagi eritmasi ishtirokida neytrallandi. Natijada polimetilenantrasen karbon kislotasi natriy tuzining 35-37% suvli eritmasi hosil bo'ldi. Quyida neytrallanish reaksiya tenglamasi keltirilgan;




Sintez jarayoni texnologik ko'rsatgichlarini o'zgartirish evaziga hosil bo'ladigan polikondensatning molekular massasini oshirish mumkin.

PMAK-1 polimerning termik barqarorligi termogravmetrik (TGA) usul bilan tahlil qilindi. Tahlil natijalari uch bosqichli massa yo'qotish bilan namuna tuzilishining o'zgarishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. Dastlab 27,01-152,07°C – haroratlar oralig'ida 22,989 % gacha, keyingi 152,07-369,56°C – haroratlar oralig'ida 22,065%, 369,56-900,9°C gacha uchinchi oraliqda 22,554% massa kamayishi kuzatilgan. 900°C gacha qizdirilganda 67,608% umumiy massaga nisbatan yo'qotishga uchrashi ko'rsatilgan. Namunaning differensial termik tahlili ikkita ekzotermik va ikkita endotermik effektini namoyon qilmoqda. Ikkita ekzotermik effekt 220,79-354,14°C va 388,69-488,93°C haroratlar oralig'larida kuzatildi, bu effektlar polimer molekulasidagi faol funksional guruhlar orasidagi o'zaro ta'sirlar evaziga hosil bo'lishi bilan tushuntiriladi.

Kationitning ekspluatatsion xossalarini o'rganish

Antrasen gomologlari asosida olingan fazoviy tuzilishli polimetilenantrasen karbon kislotani kationit sifatida sinovga tayyorlashda GOST 10896-78 xalqaro

standart bo'yicha ishlar amalga oshirildi. Ushbu standart ionitlar uchun qo'llanilib, ularning fizik-kimyoviy va texnologik xususiyatlarini aniqlash uchun tayyorlash usullarini belgilaydi. Kationitni ishga tayyorlash uchun ishlab chiqarishda qo'llaniladigan organik va mineral aralashmalar, dastlab ishqor so'ngra kislota eritmalari bilan yuviladi.



4 – rasm. PMAK-1 polimerining TG - tremogravmetrik; DT – diffirensial termik tahlil natijalari .

Kationitning solishtirma massasi – uning hajm birligiga to'g'ri keladigan massasi bilan tavsiflanadi (t/m^3 , kg/dm^3 , g/sm^3). Kationitning solishtirma massasi GOST 10898.2-74 bo'yicha aniqlanadi. Solishtirma massa kationit massasining hajmiga bo'lgan munosabatini aniqlashdan iborat.

Yuqoridagi GOST talablariga muvofiq sintez qilingan PMAK-1 kuchsiz kationitning solishtirma massasi aniqlandi (6 – jadval).

6 – jadval

Kationitning solishtirma massasi

No	Kationitlar	Massasi (g)	Hajmi (sm^3)	Solishtirma massasi (g/dm^3)
1	PMAK-1	50	71,4	700
2	KU-2-8	50	67	750

Antrasen gomologlari asosida olingan PMAK-1 kuchsiz kationitining solishtirma massasi KU-2-8 kationiti bilan deyarli bir xil ekanligi aniqlandi.

Kationitning namligi - kationit tarkibidagi suv massasining kationit massasiga nisbati (%) bilan ifodalanadi. Namlikni aniqlash uchun vlagamerdan foydalanildi. Avval kationit kislota bilan, so'ngra distillangan suv yordamida neytral bo'lguncha yuvildi va 24 soat bo'ktirib qo'yildi. Olingan kuchsiz kislotali kationit PMAK-1ning namligi 66% gachaligi aniqlandi. Solishtirish maqsadida KU-2-8 ning namligi aniqlandi, uning qiymati 48-58% gacha.

Kationitning solishtirma hajmi – bo'kkan holatda ion almashinuvchining solishtirma hajmi (V_s) sm^3/g da hisoblanadi. Kationitning solishtirma hajmi GOST 10898.4 - 84 standartiga muvofiq aniqlandi.

Kationitning eng muhim xususiyatlaridan biri ularning suvda va organik erituvchilarda bo'kishidir. Kationitning suvda bo'kish darajasi ionitning xossasi va eritma tarkibiga bog'liq. Kationitning suv bilan ta'sirini aniqlaydigan asosiy xususiyatlariga makromolekulyar zvenoning o'zaro bog'lanish darajasi, ionogen guruhlarning konsentratsiyasi, funksional guruhlarning dissotsiyalanish darajasi va ularning suvni biriktirish qobiliyatlari kiradi.

Olingan natijalar quyidagi jadvalda keltirilgan (7 – jadval).

7 – jadval

Sintez qilingan PMAK-1 kuchsiz kislotali kationitning solishtirma hajmi

№	Kationitlar	Massasi (g)	Hajmi (dm ³)	Solishtirma massasi (g/dm ³)
1	PMAK-1	15,144	26,2	5,1
2	KU-2-8	15,025	19	2,8

Olingan kationitning solishtirma hajmi $V_s(\text{PMAK-1}) = 5,1 \text{ sm}^3/\text{g}$ solishtirish uchun KU-2-8 ning natriyli formasining solishtirma hajmi $2,8 \text{ sm}^3/\text{gr}$ ga teng.

Kationitning almashinish sig'imini aniqlash. Kationitlarning muhim xususiyatlaridan biri, ionogen guruhlarning konsentratsiyasi yoki almashinish sig'imi hisoblanadi. Kationitlarning almashinish sig'imi quruq holatda massa birligida yoki bo'kgan holatda hajm birligida funksional guruhlar soni orqali aniqlanadi; shunga ko'ra mg-ekv/g yoki mg-ekv/sm³ bilan ifodalangan.

Ionitning statik almashinish sig'imini aniqlash

Kationitlarning statik almashinish sig'imini aniqlash uchun GOST- 20255.1-89 dan foydalanildi. Bu usulda ishchi eritmaning doimiy hajmiga massa birligi yoki ion almashinuvchi hajmi bilan yutilgan ionlar miqdorini aniqlashdan iborat. Kationitni sinovga tayyorlash GOST 10896 ga muvofiq amalga oshirildi.

8 – jadval

PMAK-1 kuchsiz kislotali kationitning umumiy statik almashinish sig'imi

№	Kationit	Massasi (gr)	Namligi (%)	V_s (sm ³ /g)	V1 o'rtacha (sm ³)	V(sm ³)
1	PMAK-1	2,155	66	5,1	17,3	100
2	KU-2-8	2.085	58	2,8	12,2	100

Formula asosida hisoblash natijasida PMAK-1 uchun $P_m = 4,2 \text{ mg-ekv/g}$ ekanligi aniqlandi. Solishtirish uchun KU-2-8 ning $P_m = 4,6-4,8 \text{ mg-ekv/g}$ ga teng.

Kationitning dinamik almashinish sig'imini aniqlash

Kationitlarning dinamik, ya'ni harakatdagi almashinish sig'imini aniqlash uchun GOST- 20255.2-89 dan foydalanildi. Buning uchun ishchi eritmadan kationitga yutilgan ionlar miqdorini kationit orqali o'tgan eritmaning uzluksiz oqimi bilan bo'kgan kationitning hajmi orqali aniqlashdan iborat. Kationitni sinovga tayyorlash GOST 10896 ga muvofiq amalga oshirildi.

9 – jadval

PMAK-1 kuchsiz kislotali kationitning dinamik almashinish sig'imi

№	Kationit	V_i (sm ³)	Namligi (%)	V_f (sm ³)	V_n o'rtacha (sm ³)	DAS (mmol/m ³)
1	PMAK-1	100	66	150	258	472
2	KU-2-8	100	48-58	172	292	500-520

PMAK-1 va KU-2-8 kationitlarning dinamik almashinish sig'imi mos ravishda 472g-ekv/m³ va 500-520 g-ekv/m³ ekanligi aniqlandi.

Dissertatsiyaning «Ko'p yadroli aromatik birikmalar asosida kationit olish texnologiyasi» deb nomlangan to'rtinchi bobida uglevodorodlar pirolizi jarayoni ikkilamchi mahsuloti tar-mahsulot fraksiyalari tarkibidan ajratib olingan antrasen gomologlari asosida sintez qilingan chiziqli va fazoviy tuzilishli polimetilenantrasen karbon kislota amaliyotga joriy qilindi. Chiziqli strukturaga ega polimetilenantrasen karbon kislota natriyli tuzi beton qorishmalari uchun superplastifikator sifatida foydalanildi va ijobiy natijalar olindi.


Fazoviy tuzilishli polimetilenantrasen karbon kislota suvda erimasligi va molekulasida faol karboksil guruhi borligi uchun kuchsiz kislotali kationit sifatida texnik suvlarni tarkibidagi qattqlik beruvchi og'ir metallarning kationlaridan tozalash uchun qo'llanildi. Sintez qilingan PMAK-1 kuchsiz kislotali kationit xossalari import qilinadigan kationitlar xossalari bilan solishtirildi. Tajriba natijalari import kationit bilan sintez qilingan kationit xossalari jihatdan o'xshashligi aniqlandi. Sintez qilingan kationit sanoat aylanma suvlari va oqava suvlari tarkibidagi og'ir metallar ionlari asosan kalsiy va magniy ionlaridan tozalashda qo'llashga tavsiya etildi.

Texnologik jarayon uzluksiz bo'lib, quyidagicha tavsiflanadi.

1-bosqich. Ikkilamchi mahsulot tar-mahsulot fraksiyalari tarkibidan antrasen gomologlari rektifikatsion kolonnada ajratib olindi.

2-bosqich. Ajratib olingan antrasen gomologlari sulfat kislota katalizatorligida nitrat kislota bilan oksidlab antrasen karbon kislotalar aralashmasi sintez qilindi.

3-bosqich. Olingan karbon kislota 5-reaktorda formalin bilan polikondensatlandi va oligomer sintez qilindi.



5 – rasm. Tar-mahsulot asosida kuchsiz kislotali kationit ishlab chiqarish texnologik sxemasi.

1 - konsentrlangan nitrat kislota uchun idish; 2 – antrasen gomologlari uchun idish; 3 - formalin uchun idish; 4 – oksidlash reaktori; 5 - oligomer sintezi uchun reaktor; 6 - kukun uchun idish; 7 - varonka; 8 – karbon kislota uchun idish; 9 – sovutgich; 10 - quritish kamerasi; 11 - maydalagich; 12 - kondensasiya uchun qurilma; 13 - rolikli maydalagich; 14 - vibratsion elaklar; 15 - diskli maydalagich; 16 - yuvish kolonnasi; 17 -sentrifuga.


1000 kg polimetilenantrasen karbon kislota ishlab chiqarish uchun sarflanadigan xom ashyo hisoblandi va jarayonning material balansi ishlab chiqildi.

Tar-mahsulot asosida olingan kuchsiz kislotali kationit ishlab chiqarish texnologiyasi uchta liniyadan iborat bo‘lib, texnologiya uzluksiz ishlashga mo‘ljallangan. 6 – rasmda tar-mahsulotdan kuchsiz kislotali kationit ishlab chiqarish texnologik sxemasi keltirilgan.


Piroliz jarayoni ikkilamchi mahsuloti tar-mahsulot fraksiyalari tarkibidan olingan antrasen gomologlari asosida olingan kuchsiz kislotali kationit ishlab chiqarish texnologiyasi bir necha bosqichlardan tashkil topgan. Quyida ishlab chiqarish jarayonining texnologik parametrlari va jarayon reaksiya tenglamalari keltirilgan:

1. Tar-mahsulot fraksiyalaridan biri antrasen gomologlari fraksiyasini vakuum distillash orqali 340-360°C harorat oralig‘idagi antrasen gomologlari ajratib olindi.


2. Olingan gomologlar aralashmasi konsentrlangan sulfat kislota katalizatorligida 56% nitrat kislota bilan 4 soat davomida oksidlandi va antrasen karbon kislotalar aralashmasi olindi.



3. Antrasen karbon kislota 38% formalin bilan 1;1,5-2 mol nisbatda 110-120°C haroratda, 3-6 soat davomida, 20-40 atm. bosim ostida polikondensatsiya jarayonida polimerlandi.



4. Oligomer sifatida hosil bo‘lgan mahsulot molekulasida metilol guruhlari tutganligi sababli polikondensatlanish jarayonini to‘liq borishi uchun 12 soat davomida 100-105°C haroratda qizdirildi.



XULOSA

1. Tabiiy gaz komponentlari pirolizi ikkilamchi mahsuloti hisoblangan tar-mahsulot tarkibi o'rganilgan, uning tarkibidan antrasen gomologlari ajratib olingan va qayta kristallash orqali tozalangan.
2. Olingan antrasen gomologlari 56% nitrat kislota muhitida konsentrlangan sulfat kislota katalizatorligida oksidlangan va antrasen karbon kislotalar sintez qilingan. Antrasen karbon kislota va formalin asosida polikondensatsiya reaksiyasi natijasida chiziqli va fazoviy tuzilishga ega polimetilenantrasen karbon kislotalar, ularning natriyli tuzlari sintez qilingan, jarayonning texnologik parametrlari aniqlangan.
3. Antrasen karbon kislotalar bilan formaldegidning 1:0,8 mol nisbatda atmosfera bosimida polikondensatlanishida chiziqli tuzilishga ega polimetilenantrasen karbon kislota natriyli tuzi hosil bo'lishi aniqlangan. Sintez qilingan moddalarning tuzilishi va xossalari fizik-kimyoviy analiz usullari yordamida aniqlangan
4. Antrasen karbon kislota bilan formaldegid 1:2 mol nisbatida, 30-40 atm. bosimda, 110-120⁰C haroratda polikondensatlanganda fazoviy tuzilishga ega polimetilenantrasen karbon kislota hosil bo'lishi aniqlangan. Sintez qilingan kuchsiz kislotali kationit sanoat korxonasi aylanma suvlari tarkibidagi og'ir metall ionlarini ajratib olishda qo'llanilgan.
5. Antrasen gomologlari asosida polimetilenantrasen karbon kislota olishning vaqtinchalik texnologik reglamenti ishlab chiqilgan, jarayonning moddiy balansi va iqtisodiy samaradorligi hisoblangan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.16/30.12.2019.К/Т.87.01 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ
НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОМ ИНСТИТУТЕ ХИМИЧЕСКОЙ
ТЕХНОЛОГИИ**

БУХАРСКИЙ ИНЖЕНЕРНО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ

КАРИМОВА ЗИЛОЛА МАХМУДОВНА

**ТЕХНОЛОГИЯ И ПРИМЕНЕНИЕ ИОНООБМЕННЫХ СМОЛ НА
ОСНОВЕ ВТОРИЧНОГО СЫРЬЯ ПРОЦЕССА ПИРОЛИЗА**

02.00.14 – Технология органических веществ и материалов на их основе

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО
ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент-2025

Тема докторской диссертации (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан под номером B2023.4.PhD/T4111

Диссертационная работа выполнена в Бухарском инженерно-технологическом институте.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) на сайте Ученого совета (www.tktiti.uz) и на Информационно-образовательном портале «Zionet» (www.ziyonet.uz)

Научный руководитель:

Нурманов Суванкул Эрханович
доктор технических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Каримов Масъуд Убайдулла угли
доктор технический наук, старший научный сотрудник

Махкамов Музаффар Абдуганпорович
доктор технических наук, профессор

Ведущая организация:

Институт общей и неорганической химии

Защита диссертации состоится 3 июля 2025 г. в «09:00» часов на заседании Ученого совета DSc.16/30.12.2019.К/Т.87.01 при Ташкентском научно-исследовательском институте химической технологии по адресу: 111116, Ташкентский район, СГМ Ибрат, Шурабазар. Тел.: (+99895) 144-67-83, E-mail: ooo_tniixt@mail.ru, TKTITI@exat.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского научно-исследовательского института химической технологии (зарегистрирована за № 2025/14. Адрес: 111116, Ташкентский район, СГМ Ибрат, Шурабазар. Тел.: (+99895) 144-67-83, E-mail: ooo_tniixt@mail.ru, TKTITI@exat.uz).

Автореферат диссертации разослан « 18 » июня 2025 года.
(протокол рассылки № 2025/14 от « 18 » июня 2025 г.).



А.Т. Джалилов
Председатель научного совета
по присуждению учёных степеней,
д.х.н., проф., академик

Ш.Н. Киёмов
Ученый секретарь научного совета
по присуждению учёных степеней,
д.т.н. (DSc), с.н.с.

Х.С. Бекназаров
Председатель научного семинара
при научном совете по присуждению
учёных степеней, д.т.н., проф.

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В последние годы пиролиз углеводородов признан основным и экономически эффективным методом производства низших олефинов в мире. В этом процессе наряду с основными продуктами (этилен, пропилен, бутен-1, водород) образуются также вторичные продукты (пиролизный дистиллят, пиролизное масло и тар-продукт. Особое внимание уделяется производству реагентов из материалов, получаемых из вторичных продуктов, для использования в химической промышленности, на нефте- и газоперерабатывающих заводах, в энергетике, фармацевтике, строительстве, сельском хозяйстве и других отраслях.

В связи с естественными и искусственными изменениями в мире, такими как увеличение количества промышленных сточных вод, уменьшение количества питьевой воды проводятся научные исследования по поиску новых типов катионитов и их сырьевой базы, а также синтезу на их основе ионообменников высокого качества и эффективности. В связи с этим исследование процесса получения пористых материалов с высокими адсорбционными свойствами, динамической и статической емкостью, механическими свойствами, определение их технологических параметров и создание их технологии имеют большое научное и практическое значение.

В нашей республике проводится ряд научных исследований, направленных на развитие экспортоориентированной продукции в химической промышленности за счет постепенного сокращения импорта при эффективном использовании местного сырья, рациональное использование вторичных продуктов, полученных в результате переработки. В Стратегии развития Узбекистана поставлены важные задачи как «дальнейшее развитие потенциала местной промышленности при полном использовании существующих возможностей, внедрение стандартов, соответствующих внешнему рынку и международным требованиям»². В связи с этим особое внимание уделяется исследованиям, направленным на определение состава местного промышленного вторичного сырья, выделение необходимых соединений и создание на их основе промышленных систем очистки воды, определение их физико-химических, эксплуатационных свойств и разработку технологии.

Данное диссертационное исследование в определённой степени служит реализации задач, поставленных в Указе Президента Республики Узбекистан № УП-4947 от 7 февраля 2017 года «О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан», Постановлениях Президента Республики Узбекистан № ПП-3983 от 25 октября 2018 года «О мерах по ускоренному развитию химической промышленности Республики Узбекистан», № ПП-3979 от 17 января 2018 года «О мерах по стабильному обеспечению отраслей экономики страны востребованными видами продукции и сырья», ПП-4992 от

